



TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINING NAZARIY ASOSLARI

THEORETICAL FOUNDATIONS OF INVESTMENT ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS

***Jo'rayev O'ktam
Panji o'g'li***

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada tijorat banklarning investitsiya faoliyatida resurslarni jalb etish, ularni joylashtirish mexanizmlari, foyda olish va investitsion risklarni boshqarish kabi jihatlar o'rganilgan. Shuningdek, "Agrobank" ATBda qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi tahlil qilingan bo'lib, tijorat banklarining investitsion faoliyatning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Eng. - This article explores the aspects of attracting and allocating resources, generating profit, and managing investment risks in the investment activities of commercial banks. In particular, it analyzes the volume of investments directed toward securities in "Agrobank" JSCB and presents scientific proposals and recommendations aimed at improving the investment activities of commercial banks.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, investitsiyalar, investitsiya faoliyati, qimmatli qog'ozlar, kredit, depozit.*
❖ *commercial banks, investments, investment activities, securities, credit, deposit.*

Kirish.

Investitsiyalar zamonaviy iqtisodiyotda barqaror o'sish va tarkibiy islohotlarni amalga oshirishda muhim moliyaviy vosita sifatida e'tirof etiladi. Ular iqtisodiy tizimning yangilanishi, ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi hamda innovatsion faoliyatning rag'batlantirilishi uchun zarur omildir. Shu nuqtai nazardan qaranganda, investitsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlovchi institutsional tuzilmalardan biri moliya tizimi hisoblanadi. Aynan moliyaviy muassasalar, jumladan, tijorat banklari investitsion faollikni kuchaytirishda muhim vositachi sifatida ishtirok etadi.

Tijorat banklari aholi va tadbirkorlik subyektlaridan jalb qilgan mablag'larini

investitsion kapitalga aylantirish orqali iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishda beqiyos rol o'ynaydi. Tijorat banklarining investitsion jarayondagi o'ziga xosligi shundaki, ular mijozlar bilan ko'p yo'nalishli aloqalarni ta'minlay oluvchi kompleks xizmatlar majmuini taklif eta oladi. Mazkur xususiyat tijorat banklariga investitsion jarayonlarda nafaqat moliyaviy resurslarni turli xil moliyaviy instrumentlar orqali jalb etish imkonini beradi, balki ularni axborot ta'minoti, investitsion tahlil va risklarni boshqarish kabi muhim funksiyalarni amalga oshiruvchi ko'p funksiyali moliyaviy vositachilar darajasiga olib chiqadi. Shunday qilib, tijorat banklari investitsion faoliyatda kompleks xizmatlar ko'rsatuvchi institutsional

subyekt sifatida shakllanadi, bu esa ularning iqtisodiyotdagi tizimli rolini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, tijorat banklari investitsion muhitning sifat jihatdan yaxshilanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

О.Кузнецова investitsiya faoliyatini samarali tashkil etishda davlatning kredit-moliya tizimi, xususan, tijorat banklarining o'rni alohida e'tiborga loyqligini ta'kidlaydi. Bugungi kunda tijorat banklarining investitsiya jarayondagi ishtiroki tobora ortib bormoqda. Bu holat bank sektorining faqatgina moliyalashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki investitsiyaviy risklarni baholovchi, tahliliy axborotlar bilan ta'minlovchi va investitsion qarorlar qabul qilinishi jarayonida faol ishtirok etuvchi institutsional vositachiga aylanishini anglatadi [1].

Э.Якутина fikriga ko'ra, tijorat banklari faoliyatining samaradorligi va ularning investitsiya jarayondagi faolligi iqtisodiy muhitning barqarorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki, iqtisodiyotning uzluksiz va izchil rivojlanishi moliya-kredit tizimining, xususan, bank sektorining barqaror ishlashi va strategik yo'nalishlarda faol ishtirok etishini talab etadi [2].

А.Зверев, В.Мандрон, М.Мишина tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda banklar zamonaviy iqtisodiy tizimda investitsiya munosabatlarining asosiy institutsional ishtirokchilaridan biri ekanligi qayd etiladi. Ular iqtisodiyotda mavjud bo'lgan bo'sh pul mablag'larini jalb etish va ushbu resurslarni turli moliyaviy vositalar orqali real sektor subyektlariga yo'naltirish orqali investitsiya jarayonida vositachilik funksiyasini bajaradi. Mazkur faoliyat banklarning moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashdagi rolini kuchaytiradi va investitsion faollikni rag'batlantiradi [3].

Е. Мазикова, Н. Юманова fikriga ko'ra, tijorat banklari investitsiya faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bu qimmatli

qog'ozlar bozoriga yo'naltirilgan sarmoyalar hisoblanadi. Mazkur yo'nalish banklarning moliyaviy resurslarini nisbatan uzoq muddatli va daromad keltiruvchi aktivlarga joylashtirish imkonini beradi [4].

Б.Райзберг tadqiqotlarida bank investitsiyalari bank resurslarini uzoq muddatli, rentabelligi kafolatlangan qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish jarayoni sifatida talqin etiladi [5].

Л.Игонина fikriga ko'ra, tijorat banklari investitsion faoliyatda ikki darajadagi funksiyani bajaradi. Mikrodarajada ular iqtisodiy subyekt sifatida o'z resurslarini daromad olish maqsadida moliyaviy yoki haqiqiy aktivlarga yo'naltiradi, bu esa bankning rentabelligini oshirish va kapitalni samarali boshqarishga xizmat qiladi. Makrodarajada esa banklar moliyaviy vositachi sifatida ishtirok etib, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning jamg'armalarini investitsiya resurslariga aylantirish orqali iqtisodiyotda kapitallarning qayta taqsimlanishini ta'minlaydi [6].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiya jarayonida mablag'larni shakllantirish va ulardan maqsadli foydalanish iqtisodiyotni tarkiban yangilash, ilmiy-texnik taraqqiyotga erishish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va innovatsion rivojlanishni ta'minlashda hal qiluvchi omil sanaladi. Tijorat banklari investitsion faoliyatni amalga oshirishda, asosan, jalb qilingan va qarz mablag'laridan foydalanganliklari bois, mablag'larni investitsiya qilish jarayonida konservativ yondashuvni tanlashadi. Investitsiya qilishda konservativ yondashuv risklarni minimallashtirishga qaratilgan ehtiyotkor strategiya hisoblanadi. Bu yondashuv, odatda, yuqori darajadagi ishonchlilikka ega bo'lgan, past daromadli,

biroq barqaror va likvid aktivlarga investitsiya kiritishni nazarda tutadi. Bu holat banklar uchun likvidlik darajasini saqlab qolish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va depozit egalarining ishonchini mustahkamlash zarurati bilan bog'liqdir. Natijada, tijorat banklari investitsion qarorlarni qabul qilishda loyihaning risklilik darajasi, kapitalning qoplanish muddati va kafolatlangan daromadlilik kabi mezonlarga asoslanadi.

Tijorat banklarining investitsion faoliyatdagi asosiy yo'nalishlari ularning moliyaviy vositachi sifatidagi funksiyalarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi va quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, investitsiya jarayonini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni jalb etish bank faoliyatining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda banklar aholi, yuridik shaxslar hamda boshqa moliyaviy institutlardan depozitlar, obligatsiyalar chiqarish yoki boshqa moliyaviy instrumentlar orqali resurslar

to'playdi. Ikkinchidan, tijorat banklari ushbu jalb etilgan mablag'lar hisobidan investitsion kreditlar ajratadi. Bunday kreditlar odatda uzoq muddatli bo'lib, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish yoki asosiy vositalarni modernizatsiya qilishga mo'ljallanadi. Uchinchidan, banklar investitsion faoliyatni bevosita qimmatli qog'ozlarga mablag' kiritish orqali ham amalga oshiradi. Bu investitsiyalar bank mablag'lari hisobidan yoki mijozlarning topshirig'i asosida amalga oshiriladi va daromad olish, shuningdek, portfel diversifikatsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, tijorat banklarining investitsion jarayondagi ishtiroki ko'p qirrali bo'lib, real va moliyaviy sektorlar o'rtasida barqaror iqtisodiy aloqalarni shakllantirishga yordam beradi. Quyidagi 1-jadvalda "Agrobank" ATB amaliyotida qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar tahlilini ko'rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval

2020-2024-yillarda "Agrobank" ATBning qimmatli qog'ozlarga investitsiyalari (mlrd. so'm) [7]

Ko'rsatkich	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Kapital qimmatli qog'ozlar	19,0	17,5	23,0	30,4	120,4
Qarz qimmatli qog'ozlar	96,0	1409,2	1955,9	876,1	231,9
Jami	115,0	1426,8	1974,5	906,5	352,3

2019-2023-yillar davomida "Agrobank" ATB amaliyotida qimmatli qog'ozlariga yo'naltirilgan mablag'lar hajmida salbiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, 2020-yilda bank tomonidan ushbu moliyaviy vositalarga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi keskin oshib, 1426,8 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2020-yilda "Agrobank" ATBning investitsiya portfeli tarkibida qarz qimmatli qog'ozlari salmoqli ulushni tashkil etgan bo'lib, ularning umumiy hajmi 1409,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Kapital qimmatli qog'ozlar (aksiyalar) ga investitsiyalar hajmi esa yildan-yilga ortib bormoqda. 2019-yilda bu ko'rsatkich 19 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 120,4

mlrd. so'mga yetgan. Ushbu tendensiya "Agrobank" ATB tomonidan investitsion faoliyatda yuqori daromadlilik (rentabellik) ko'rsatkichiga ega bo'lgan aktivlarga nisbatan maqsadli va strategik yondashuv shakllanayotganini, bank portfelining rentabellik va barqarorlik mezonlari asosida optimallashtirilayotganini ko'rsatadi.

"Agrobank" ATBda jami qimmatli qog'ozlarga investitsiya hajmi 2021-yilda 1974,5 mlrd. so'm bilan eng yuqori darajaga chiqqan bo'lsa-da, keyingi ikki yilda bu ko'rsatkich sezilarli darajada qisqargan. 2023-yilda jami investitsiya hajmi qariyb 4 barobarga kamaygan holda 352,3 mlrd. so'mga

tushgan. Investitsion faollikni oshirish uchun tijorat banklari resurs bazasini kengaytirishi, kapital bozorining imkoniyatlaridan faol foydalanishi va loyiha moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishi zarur.

Bank investitsion siyosatining shakllanishi murakkab va uzoq muddatli jarayon bo'lib, u tashqi va ichki omillarning tahliliga asoslanadi. Tashqi omillar makroiqtisodiy muhit, investitsiya muhiti, davlatning tartibga solish siyosati, soliq tizimi kabi omillarni o'z ichiga oladi. Ichki omillar esa bankning umumiy maqsadlari, moliyaviy resurslarning hajmi va tuzilmasi, aktivlar rentabelligi, bank faoliyatining hayotiy tsikli va risk darajasi kabi mezonlar bilan belgilanadi.

Xulosa va takliflar.

Tijorat banklarining investitsiya faoliyati moliyaviy tizimning ajralmas qismi bo'lib, iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu faoliyatning nazariy asoslari banklarning iqtisodiyotdagi funksional vazifalari, moliyaviy resurslarni jamlash va ularni samarali taqsimlash tamoyillariga asoslanadi.

Banklarning investitsiya faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun strategik yondashuv, zamonaviy boshqaruv modellarini qo'llash, tashqi muhit o'zgarishlariga

moslashuvchanlik va resurslar samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy jihatdan, investitsiya faoliyati banklar uchun nafaqat foyda manbai, balki iqtisodiyotni moliyalashtirish vositasi sifatida ham qaraladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining investitsion faoliyatini cheklovchi omillar qatoriga past likvidli ta'minot obyektlari, loyihalarning puxta tahlil qilinmasligi, uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarning yetishmasligi kiradi. Ko'pgina loyihalarda risklar yetarlicha baholanmasligi tufayli banklar ushbu sohalariga investitsiya kiritishda ehtiyotkorlik bilan yondashmoqda.

Tijorat banklarining investitsion faoliyatini rivojlantirish uchun mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, makroiqtisodiy muhitni yaxshilash, banklararo hamkorlikni kuchaytirish va xodimlarning kasbiy malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalar tijorat banklari uchun nafaqat daromad manbai, balki boshqa moliyaviy institutlar va subyektlar bilan hamkorlik qilish, xalqaro moliya bozorlarida ishtirok etish, real sektorni qo'llab-quvvatlash kabi ko'p funktsiyali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. О.С. Кузнецова. Инвестиционная деятельность российских банков и проблемы ее осуществления // Вестник Гуманитарного университета. – 2018. – № 1. – С. 22-25. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: <https://e.lanbook.com/journal/issue/307407>
2. Якутина Э.В. Инвестиции в банковской деятельности // Economics. – 2017. – № 5 (26). – С. 59-62.
3. Зверев А.В., Мандрон В.В., Мишина М.Ю. Инвестиционная деятельность и инвестиционная политика банковского сектора РФ // Вестник БГУ. – 2018. – №3 (37). – [Электронный ресурс]. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/investitsionnaya-deyatelnost-i-investitsionnaya-politika-bankovskogo-sektora-rf>
4. Мазикова Е.В., Юманова Н.Н. Инвестиции банков в ценные бумаги: сущностный аспект и тенденции развития в современных условиях // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. – 2015. – № 6. – С. 185-202.
5. Б.А. Райзберг. Современный экономический словарь / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева; 6-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 512 с.
6. Игонина Л. Л. Инвестиции. – М.: Магистр, 2014. – 752 с.
7. <https://agrobank.uz> - "Agrobank" ATBning rasmiy veb-sayti.